

O'TKIR HOSHIMOVNING «IKKI ESHIK ORASI» ROMANIDA PERSONAJ RUHIY HOLATINI IFODALOVCHI VOSITALAR TAHLILI

M.Sharipova

FarDU o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada ruhiy holat ifodalovchi lisoniy hamda nolisoniy vositalar O'tkir Hoshimovning «Ikki eshik orasi» romani misolida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: paradigma, psixolingvistika, aloqa-aralashuv, lisoniy vositalar, nolisoniy vositalar.

Annotation. In this article, the linguistic and nonlinear means of expressing mental state are analyzed using the example of the novel “between two doors” by acute Hoshimov.

Keywords: paradigm, psycholinguistics, communication-intervention, linguistic means, nonlinear means.

Sh.Safarov tilshunoslikdagi paradigmalar almashinuvida inson omili muhim ahamiyat kasb etganligini alohida ta'kidlaydi: “Sistem-struktur paradigma o'zidan oldin yuzaga kelgan qiyosiy-tarixiy paradigmaning «atomistik», ya'ni til hodisalarini alohida-alohida, bir-biridan ajratgan holda tahlil qilinishi natijasida yuzaga kelgan nuqsonlarini bartaraf qilish yo'lini tutdi. Sistem-struktur yo'nalishning asosiy samarasi tilning tizimli hodisa ekanligini isbotlashdan iboratdir. Ammo bu ikki paradigmaning umumiy kamchiligi borligi ham ma'lum bo'ldi: bu yo'nalishlarda til o'z egasi – insondan ajralib qoldi. Ushbu nuqsonni yo'qotish yo'lidagi urinishlar pragmatik va kognitiv tilshunoslik paradigmalarining yaratilishiga sabab bo'ldi”¹. Psixolingvistika ham ana shunday antropotsentrik tilshunoslik yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

“Til haqida gap ketganda ko'pincha uni daryoga qiyoslashadi. Undan hamma bahramand bo'ladi, foydalanadi. Mana shu foydalanish jarayonida har bir shaxs alohidalikni, individuallikni namoyon etadiki, bugungi kunda psixologlarni, tilshunoslarni qiziqtirgan jihat ham aynan mana shu narsa « nutqiy faoliyatdir. Bir qarashda yaxlit, zerikarli, rangsiz ko'ringan daryo, ya'ni til, endi butun go'zalligi, rang-barangligi, ohangdorligi, jozibasini har bir tomchida, ya'ni har bir shaxsning

¹ Сафаров Ш. Прагмалингвистика. Монография. Тошкент, 2008. – Б.38

nutqida namoyon etadi. Xuddi shu yerdan psixolog va lingvistlarning o'rganish obyekti umumiy lashadi, ya'ni psixolingvistika boshlanadi. Inson juda murakkab mavjudot. Uning ruhiyatida, his-tuyg'ularida bo'layotgan o'zgarishlar bevosita nutqida ham aks etadi. Quvonch, shodlik, g'am, qayg'u, achinish, armon, og'riq, iztirob, alam, o'kinch, g'azab, nafrat, ochlik, to'qlik... v.h. Ruhshunoslikda inson emotsiyasi affekt (juda kuchli, lekin qisqa muddatli emoysional reaksiyalar), hissiyot (uzoq va turg'un emotsional munosabat), kayfiyat va stress (kuchli ruhiy zarba) kabi turlarga bo'linadi. Ushbu holatlar badiiy matnlarda tilning turli sath birliklari vositasida aks etadi"².

Xullas, uch kun avval "Moskvich"ida kelib qoldi. Yigitlar uchinchi qavatda domino o'ynab o'tirishar, shaqur-shuqur tovushlar pastdan bemalol eshitilib turardi.

Shavkat Qudratovichning rangi o'chib ketdi.

"Bu qanaqa chempionat?" dedi yuqoriga imo qilib.

Indamay turaverdim. Ko'rib qo'ysin! Odamlar bekor o'tiribdi. Kerakli panel yo'q. Prorabga tushuntirdim, uchastka boshlig'iga iltimos qildim, o'zining qabuliga kirdim. Yelkamga qoqib chiqarib yubordi.

– Kim u?– Shavkat Qudratovich ko'zoynagini yaltiratib chaqchaydi. "Familiyasi nima?

Aytdim nima-yu, aytmadim nima? Qurilish ashyolari bo'lmagandan keyin...

Indamay turishimdan hammasini tushundi.

– Ishbuzuqlikka o'zlari bosh-qosh bo'ptilar shekilli, o'rtoq Shomurodov?" dedi labi burilib. "Brigadirlik yuki og'irlik qilib qoldimi?

Yana indamadim.

Oxiri uning toqati toq bo'ldi.

«Til-zabon bormi o'zi? « dedi tutaqib. «Kvartal tugayapti. Birinchi iyuldan pardozhilar ishga tushishi kerak. To'rtinchi qavatni kim montaj qiladi? Tomni kim yopadi?

«Pardozhilar hali-veri ishga tushmaydi, « dedim xotirjamlik bilan.

Shavkat Qudratovichning rangi gezarib ketdi.

– O'h-ho'! Ja osmondasiz-ku yigit! Gap bunday: uch kunda to'rtinchi qavatni montaj qilib, tomni yopasiz («Ikki eshik orasi», 3-bet)

² Алпанова Ш. Нутқий фаолият жараёнидаги рухий ҳолатларнинг ўзбек тилининг турли сатҳ birliklari воситасида акс этиши: Филол. фан. бўйича фалсафа док. дисс. автореф. – Фаргона, 2018. –Б.102-103

“Shaxsning muomala jarayonida ma’lum axborotni uzatishda emotsional holat inson aloqa-aralashuvining ajralmas qismi ekanligi fiziologlar, psixologlar va tilshunoslar tomonidan qayd etib o’tiladi. Fiziologlar inson va hayvonlarda tashqi olamga, munosabat ichki hissiyot ta’sirisiz bo’lishi mumkin emasligini aytсалar, tilshunoslar so’zlovchi va tinglovchining ma’lum axborot uzatish va qabul qilish jarayonida yoki uning ifodasida emotsional holatni lisoniy ifodalashga e’tibor beradilar. Aloqa-aralashuvda ma’lum axborotni uzatishda emotsional-psixologik holatlar ham qo’shimcha faktor sifatida ahamiyatli sanaladi. Emotsional holat aloqa-aralashuvda fikrni to’ldirishi yoki verbal vosita o’rnida qo’llanishi mumkin”³.

O’tkir Hoshimovning «Ikki eshik orasi» romanidan keltirilgan yuqoridagi parchada yozuvchi personaj ruhiy holatini ifodalashda bir qator vositalardan foydalangan. Jumladan, *rangi o’chib ketdi, ko’zoynagini yaltiratib chaqchaydi, labi burilib, tutaqib, rangi gezarib ketdi, toqati toq bo’ldi* kabi ifodalar asardagi personaj «Shavkat Qudratovichning qurilishda ish to’xtab, ishchilar domino o’ynab o’tirishganini ko’rgan vaziyatdagi hamda bu holatga brigadirning munosabatini eshitgan paytdagi ruhiy holatini ifodalashga xizmat qilgan.

“*Ishbuzuqlikka o’zlari bosh-qosh bo’ptilar shekilli, o’rtoq Shomurodov?*” gapi esa kinoyaga asoslangan bo’lib, II shaxs birlikdagi *o’zingiz* olmoshi o’rnida III shaxs «*o’zlari* shaklining qo’llanilishi, II shaxs birlikdagi *bo’pibsiz* fe’lining o’rnida III shaxs ko’plik shakli *bo’ptilarning* qo’llanilishi ham *insonning ma’lum vaziyatga xos ruhiy holatini ifodalovchi lisoniy vositalardir*.

Yoki quyidagi misolda so’roq gaplarning ketma-ket ishlatilishi ham ruhiy holat ifodalashga, ya’ni personajning achchiqlanganini ko’rsatishga xizmat qilgan:

– *Til-zabon bormi o’zi? «dedi tutaqib. «Kvartal tugayapti. Birinchi iyuldan pardozechilar ishga tushishi kerak. To’rtinchi qavatni kim montaj qiladi? Tomni kim yopadi?*

Quyidagi gapda esa personaj o’z nutqida kesatiqdan foydalanish orqali o’zining holatini, ya’ni jahli chiqqanini ifodalagan:

– *O’h-ho’! Ja osmondasiz-ku, yigit! Gap bunday: uch kunda to’rtinchi qavatni montaj qilib, tomni yopasiz* («Ikki eshik orasi», 3-bet)

³ Саидхонов М. Новербал воситалар ва узбек тилида уларнинг ифодаланиши: Филол.фан.номз.дисс. –Тошкент, 1993.

Xulosa qilib aytganda, badiiy asarda lisoniy vositalar ham, nolisoniy vositalar ham personajning ma’lum vaziyatdagi shodligi, xursandligi, xafaligi, achchiqlanishi, g’azabi kabi ruhiy holatini ko’rsatishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xusanova, M. R. A. (2016). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНДИВИДУАЛЬНО-СТИЛИСТИЧЕСКИХ НЕОЛОГИЗМОВ-ПРИЗНАК СТИЛИСТИЧЕСКОГО СВОЕОБРАЗИЯ. Актуальные научные исследования в современном мире, (5-1), 125-130.17.
2. Rasulova, Azizaxon Muydinovna, & Xusanova, Ma’rifat 3. Axmadjonovna (2022). POETIK NUTQDA SINONIMLARDAN FOYDALANISH MAHORATI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (10-2), 807-811.
3. Xusanova, M. R. A. (2021). THE USE OF ARCHAISM IN THE WORKS OF FARIDA AFROZ. Theoretical & Applied Science, (4), 252-254.
4. Xusanova Ma’rifat Axmadjonovna., Asomiddinova Gulruh Alijonovna. TIL ESTETIKASIGA DOIR. Analytical Journal of Education and Development Volume: 03 Issue: 03 | Mar-2023 ISSN: 2181-2624 www.sciencebox.uz 262-265.
5. Хидиров, X. H. (2019). Philosophical Analysis of the Role of the Media in Shaping Civic Culture in Uzbekistan. Молодой ученый, (15), 322-324.
6. Хидиров, X. H. (2017). Moral personality education in the philosophy of existentialism of Karl Jaspers. Молодой учёный, 30, 95.
7. Хидиров, X. H. (2018). Social justice and the process of education, and their mutual influence in the philosophical views of Abu Nasr al-Farabi. Молодой ученый, (14), 262-263.
8. Nuraliyevna, Q. D. (2021). Approaches to the development of inclusive competence in the preparation of future teachers for professional activity. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(10), 2314-2320.
9. Nuraliyevna, K. D. (2021). INCLUSIVE EDUCATION IN KINDERGARTEN. *Nauka i obrazovanie segodnya*, (4 (63)), 82-83
10. Sadikova, S. A., Yakubova, Z. Z., Kayumova, D. N., Khalilova, D. F., & Kamalova, G. A. (2023). Preparing Children for Social Activity in Preschool Educational Organizations. *Pedagogical Need. Journal of Advanced Zoology*, 44(S-2), 1777-1784
11. Nuraliyevna, K. D. (2021). INCLUSIVE EDUCATION IN KINDERGARTEN. *Наука и образование сегодня*, (4 (63)), 82-83
12. ST Xasanova, DN qizi Qayumova, BS Ramozonova. (2023). TARIXIY OBIDALAR BILAN TANISHTIRISH ORQALI TARBIYALANUVCHILARDA

MILLIY G 'URURNI SHAKLLANTIRISH TEHNOLOGIYASI. GOLDEN BRAIN 1 (31), 101-107

13.Kadamzhanovna, A.N.(2023). ORIENTALISMS IN THE WORKS OF GAFUR GULAM (BY THE MATERIAL OF THE STORY" MISCLE"). Open Access Repository 4 (03), 63-67

14.Z Madraximova,Z & Ablava, N.(2022).CHARACTERISTICS OF LERMONTOV'S WORKS" HERO OF OUR TIME". Science and Innovation 1 (8), 1843-1845 2022

15.Madraximova,Z & Ablava, N. (2022)ХАРАКТЕРИСТИКА ПРОИЗВЕДЕНИЯ ЛЕРМОНТОВА" ГЕРОЙ НАШЕГО ВРЕМЕНИ".Science and innovation 1 (B8), 1843-1845 2022

16.Аблаева, Н.К.(2022).Сопоставительный анализ русских и узбекских пословиц. Та'lim fidoyilari 6 (7), 687-691

17.Mamatkadirovna K. N. TALABALARINI DARSDAN TASHQARI TARBIYAVIY TADBIRLAR ASOSIDA MULOQOT MADANIYATIGA TAYYORLASH. – 2022.

18.Mamatkadirovna K. N. JARAYONIDA TALABALARNING KOMMUNIKATIV FAOLIYATINI SHAKILLANTIRISHDA TA'LIM INFORMASION TEXNOLOGIYADAN FOYDALANISH //Ta'lim fidoyilari. – 2022. – T. 18. – №. 5. – С. 338-341.

19. Mamatkadirovna N. K. Pedagogical system of development of culture of international communication in students //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – №. 11. – С. 245-247.

20. Sharipova, S. (2023). THE ROLE OF COACHING TECHNOLOGY IN THE DEVELOPMENT OF CREATIVE THINKING AND ABILITIES OF ADULTS IN LANGUAGE LEARNING PROCESS. Solution of social problems in management and economy, 2(13), 5-12.

21. Sharipova, S., & Xalimova, F. (2024). ACTUAL PROBLEMS OF TEACHING A LANGUAGE IN THE CLASSROOM AND THEIR SOLUTIONS. Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit, 133-135. <https://doi.org/10.2024/41yemx68>.

22.Mamatkadirovna A. K. et al. Translation as a Special Type of Language and Intercultural Communication //JournalNX. – С. 176-180.